
Prezident sovg'alari farg'onalik bolajonlarga shodlik ulashdi

Bugun Farg'ona shahridagi Islom Karimov nomidagi teatr-konsert saroyida farg'onalik o'g'il-qizlar uchun "Prezident archasi" bayram tadbiri tashkil etildi. Unda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, viloyat IIB boshlig'i Azizbek Ikramov, Milliy gvardiya viloyat bo'yicha boshqarma boshlig'i Shavkat Akbarov ishtirok etdilar.

Bu yil viloyatimiz bo'yicha jami 814 nafar oilaviy bolalar uylari hamda "Muruvvat" bolalar internat uylari tarbiyalanuvchilari, ota-ona qarovisiz qolgan bolalar, ota-onalari Vatan sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lgan o'g'il-qizlarga Davlatimiz rahbarining alohida e'tiborlari va g'amxo'rliklari sifatida Prezident sovg'alari taqdim etildi.

Shuningdek, viloyatimiz shahar va tumanlarida yashovchi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 400 nafar farzandlariga viloyat hokimining Yangi yil sovg'alari ham topshirildi.

2023-12-29 09:47:40